

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
VAZIRLIGI**

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

“TILLAR” KAFEDRASI

Nutq madaniyati

MA‘RUZALAR MATNI

TOSHKENT – 2008

“Nutq madaniyati”fani bo‘yicha yzilgan mazkur ma’ruzalar matni “Musiqiy ovoz rejissyorligiga”, “An’anaviy xonandalik”, “Akademik xonandalik”, “Estrada xonandaligi”, ixtisosligi bo‘yicha O‘zbekiston davlat konservatoriyasida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanning ma’ruzalar qismi uchun ajratilgan 30 soat hajmiga loyiq mavzularni yoritadi.

Ma’ruzalar matni Davlat ta’lim standartlariga binoan san’at yo‘nalishida bakalavr tayyorlash o‘quv rejalari va dastur asosida tuzilgan.

Tuzuvchi – muallif:

Katta o‘qituvchi: S.Rahmonova

Taqrizchi:

Katta o‘qituvchi: Z.Nasullaev

Ma’ruzalar matnlari O‘zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy – uslubiy kengashida muhokama qilingan.

ASOSIY QISM

Kirish. Nutq madaniyati fanining maqsad va vazifalari. Til va nutq tushunchasi. Turkiy tillar. O'zbek tilining tutgan o'ri: o'zbek tili qadimiy tillardan biri ekanligi; sershevaligi; purma'noyu purhikmatligi; boyligi, serjarangu jozibadorligi. Fan bilan bog'liq adabiyotlar haqida, ularda foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Ma'ruza matnlari bilan talabalarni tanishtirish.

Nutq madaniyati va nutq odobi. Pandnoma asarlar tahlili. Notiqlik san'ati – nutq madaniyatining asosi. Notiqlik san'ati vakillari haqida ma'lumotlar. Arastu, Demosfen, Tsitsiron.

A.Navoiy va nutq madaniyati. Turli asarlardan jamlangan o'gitlar.

O'zbek voizlik san'ti haqida tushuncha. Voizlar to'g'risida ma'lumotlar. Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavloni Riyoziy, Husayn voiz Koshifiy.

Nutq tovushlari haqida tushuncha. Nutq tovushlarining tabiatdagi boshqa tovushlardan farqi. Tovush va harf. Unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar tasnifi. Talaffuz me'yorlari.

Nutq madaniyati va adabiy til. Adabiy tilning ikki shakli. Adabiy til me'yorlari: fonetik, leksik, grammatik (morfologik, sintaktik), orfografik, orfoepik, aktsentologik, semantik va hokazo.

Nutq madaniyati va uning mezonlari nutqning to'g'riligi mezoniga bog'liqligi. Sof lisoniy mezon ekanligi.

Nutq aniqligi. Fikrni aniq ifodalash. Ifodalamoqchi bo'lgan narsa hodisalarni yaxshi bilish lozimligi. Nutq aniqligi mezonining nutqning to'g'riligi mezonini bilan bog'liqligi.

Nutq mantiqiyliigi. Nutqda fikrning izchilligini ta'minlash. Boshqa mezonlar bilan bog'liqligi.

Nutqning sofliigi. Noadabiy qatlamlardan, ya'ni shevalardan, varvarizmlardan, jargonlardan, ortiqcha so'zlardan nutqni holi qilish.

Nutqning qisqali va ixchamligi. “CHin so‘z – mo‘‘tabar, yaxshi – muxtasar”. Qisqa jumalarga katta mazmunni jo etish. Xalq maqollari, matallari, hikmatli so‘zlar, qo‘shiq matnlari, qisqalik va ixchamlikning namunasi ekanligi.

Nutqning boyligi. Nutqning boyligi ta‘minlaydigan lisoniy hodisalar: ko‘p ma‘nolilik, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, paronimlar, variantlilik, grammatik shakllar, intonatsiya. Sinonim so‘zlar, sinonim iboralar, sinonim qo‘shimchalar; omonim so‘zlar, omonim iboralar, omonim qo‘shimchalar; antonim so‘zlar, antonim iboralar, antonim qo‘shimchalar.

Nutq ifodaliligi: mazmundorlik. Ta‘sirchanlik. Manbani yaxshi bilish. Qog‘ozga qaramaslik, o‘qib bermaslik. Intonatsion vositalardan foydalanish.

Nutq obrazlilik. Badiiy tasvir vositalar. Ko‘chma ma‘nolar. Ma‘no ko‘chish usullari: Metofofa - tashqi shakli o‘xshashlikka asoslangan ma‘no ko‘chishi. Metonomiya – aloqadorlikka asoslangan ma‘no ko‘chish. Sinekdoxa – qism bilan butunni atash orqali ma‘no ko‘chishi. Kinoya – zid ma‘noga asoslangan ma‘no ko‘chishi. Vazifadoshlik – vazifasiga ko‘ra ma‘no ko‘chishi. Troplar va uning turlari. Epiet. O‘xshitish. Mubolag‘a.

Uslubiy figuralar. Antiteza. Gradatsiya. Ritorik so‘roq. Ellipsis. Takror.

Nutq uslublari va nutq madaniyati. Jonli so‘zlashuv uslubi. Ilmiy uslub. Rasmiy uslub. Publitsistik uslub. Badiiy uslub.

YAkuniy nazorat.

AMALIY, SEMINAR, TAJRIBA DARSLARI UCHUN KO‘RSATMALAR

Mazkur fan bo‘yicha barcha mavzularni o‘tib bo‘lgandan so‘ng, amaliy, seminar va tajriba darslari olib borilishi ko‘zda tutiladi. Bu nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlashga yordam beradi.

Amaliy darslarda talabalar joriy baholash nazoratida o‘qigan badiiy asarlarini so‘zlab beradilar. Buni talabaning og‘zaki nutqi kuzatiladi. Undagi yutuq, nuqson va kamchiliklar ko‘rsatiladi. Buning uchun talabalarning o‘zidan taqrizchi belgilanadi. Talabalarning yozma nutqini tekshirish maqsadida oraliq va yakuniy nazorat ishlari o‘tkazilib unda “Men kelajagi buyuk yurt farzandiman” “Konstitutsiya – baxtimiz qomusimiz”, “Vatanni sevmok iymondandir” mavzularida referat yoki yozma ishlar yozdiriladi, shuning yakuniy baholash nazorati uchun “Men sevgan asar”, “men sevgan bastakor”, “Men sevgan xonanda”, “Men sevgan sozanda”, “Mening repertuarim”; “San’at olamidagi yutuqlar va nuqsonlar”, “Interv’yu” singari kasbiy mahoratni oishirishga yo‘naltirilgan yozma ishlar ham o‘tkazilishi rejalashtiriladi.

CHIZMA – HISOB, KURS ISHI LOYIHALARI BO‘YICHA KO‘RSATMALAR

Musiqiy oliy ta’lim muassasalarida chizma-hisob yoki kurs loyihalari kabi ishlar to‘g‘ridan –to‘g‘ri nazarda tutilmasa-da, lekin bo‘lajak san’atkorning kelajakda sahnada, xalqning nazarida bo‘lishi hisobga olingan holda, uning nutqi sodda, ravon, ta’sirchan bo‘lishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Talababning adabiy tilda ravon bexato gapirish ko‘nikmasini hosil qilish darslar davomida olib boriladigan yozma ishlar, uyga beriladigan mustaqil vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, xalq maqollaridan, she’riy parchalardan, adabiy matnlardan foydalanish nutqning go‘zal bo‘lishi va ta’sirchanligini oshiradi. Adabiyotimiz tarixi vakillarining hayoti, ijodi va ularning asarlarini mukammal o‘rganish talablarining kelajakda dunyoqarashining keng, bilim doirasi chuqur bo‘lishini ta’minlaydi.

Mazkur fan mavzularini o‘zlashtirishda talabalarga tavsiya etilgan badiiy adabiyotlarda va boshqa manbalardan etarli darajada foydalanib, ular o‘z bilimlarini takomillashtirishlari lozim. SHuningdek, ma’lum mavzularda

referatlar yozilib, himoya qilish, insholar yozib, ularni tahlil qilish ham ko‘zda tutiladi.

1 – MAVZU

NUTQ MADANIYATIGA KIRISH

Madaniyatning bir bo‘lagi sifatida nutq madaniyati ham bir ziyolining ziyolilik darajasini belgilaydigan mezondir.

Ayniqsa, san’at ahli hamisha elning nazarida bo‘ladi. San’atkor nafaqat o‘zining kuy qo‘shiqlari ijrosi bilan, balki o‘zining sarmazmun, ta’sirchan, jozibador nutqi bilan ham tinglovchilarni, suhbatdoshini sehrlab qo‘ya olishi lozim. Aslida nutqning sehri kuy, qo‘shiq sehrdan aslo qolishmaydi. Xullas,

san'atkor oddiy, to'pori nutqda gaplashmasligi joiz. Nutq madaniyatining sir – asrorlaridan voqif bo'lmog'i lozim.

Buning uchun avvalo o'zbek tilining nufuzi, o'rni, tavsifi, ahamiyatini bilish taqazo etiladi.

Qadimiy, nuroniy tillardan biridir mening tilim! Olimlarning ta'kidlashlaricha, XI asrda yaratilgan Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asari, XII asrda yaratilgan YUsuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asari, Ahmad YUgnakiyning “Hibat – ul haqoyiq” asarlarida, uchraydigan so'zlarning 75-80 foizi uchraydi mening tilimda. Bu esa o'sha qadimiy yozma yodgorliklarga vorisligimizdan dalolatdir.

Ma'lumki, barcha turkiy tillar (qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, turkman, ozorbayjon, turk, yoqut, chuvash, xakas va boshqalar) uch lahjadan biriga (Qarluq – chigil, qipchoq, o'g'iz) asoslanadi. O'z bag'riga har uch lahjani jo aylagan sersheva tillardan biridir mening tilim!

XV asrda ham tilimiz kamsitilgan. Turkiy tilda go'zal asar yaratib bo'lmaydi degan tushunchalar mavjud edi. Ijod ahli o'z asarlarini arab va forsiy tilda bitganlar. Hazrat Mir Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal “Xamsa” yaratib, ularga amaliy ish bilan javob berganlar. “Xamsa” yarata olgan qudratli tillardan biridir, mening tilim! Bundan tashqari, hazrat “Muhokamat –ul lug'atayn” degan asar yozib turkiy tilni forsiy til bilan qiyoslab, uning go'zalligini, boyligini ilmiy asoslab berdilar.

Abdurauf Fitrat Navoiy hazratlarining asarlarini tahlil qilar ekan, “yig'lamoq” fe'lini 28 ta so'z bilan ifodalanganligini e'tirof etadi. Bir tushunchani ifodalamoq uchun o'z bag'ridan o'nlab so'z topa bilgan purma'no tillardan biridir, mening tilim!

Xalqning turmush tajribalaridan olingan xulosalari bitilgan maqolu matal va hikmatli so'zlarga boy purhikmat tillardan biridir, mening tilim!

Qo'pollikni yoqtirmaydigan nozikta'b, xushxulq tillrdan biridir, mening tilim!

Xatto soʻzlarni ham oʻynata oladigan tuyuq askiyalar tilidir, mening tilim!

SHoir aytganidek, “bulbul kuyin kuyga soladigan” dilrabo tillardan biridir, mening tilim!

Dunyoda yagona Oʻzbekiston davlatining yagona davlat tilidir, mening tilim!

Nutq madaniyatiga yondashishda tilning ushbu imkoniyatlaridan foydalanish lozimdir.

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI

Nutq madaniyati avvalo nutq odobiga tayanadi. Nutq odobi mezonlari oʻzining qadimiy ildiziga ega. Ayniqsa, oʻzbek adabiy tilining asoschisi hazrat Mir Alisher Navoiyning bu boradagi xizmatlari beqiyosdir. U jumladan, nutq odobi, yaʼni nutq madaniyatining quyidagi talabalarini bayon qiladi:

1. Tilni, soʻzni qadrla, uni hurmat qil

Donau dur soʻzini afsona bil,
Soʻzni jahon bahridan durdona bil.

(“Xamsa”)

2. Yaxshi soʻzlay olish, yaʼni nutq – sanʼatidir, noyob hunardir. Uni egallashga intilgan: Erdin soʻz hunar, inchidin boʻz hunar.

(“Mahbub – ul qulub”).

3. Insonning odob – ahloqini belgilaydigan omillaridan biri uning soʻzi – nutqidir.
4. Suvning mazasi muz bilan, oshning mazasi tuz bilan odam yaxshiligi soʻz bilan.

(“Mahbub ul -qulub”, 79 – bet.)

Soʻz zohir etar zamir ishi koʻpragidin,

Til mahbar erur ko‘ngil nihon emgagidin,
Fahm ayla kishi holini so‘z demagidin,
Kim berdi xabar hodisi ko‘nglidagidin.

(“Nazm ul-javohir”, 41-bet)

5. Kishining so‘zi (nutqi) uning ahloqiy kamolotidan darak beradi:

Odami demak birla kiromiydiru bas,
So‘z durri ishining intizomidiru bas,
Sihat onchaki, ahli aql komidiru bas,
Aqlig‘a dalil aning kalomidiru bas.

(“Nazm ul-javohir”, 35-bet)

6. So‘zlaganda diling birla tiling bir bo‘lsin, chunki dildagi tilga chiqadi.

Haq seni sevgay el bila bilsang,
Tilu ko‘nglingni bir qilib birro‘y.
Nuqta sursang shukuftau xandon,
Zist qilsang, kushodou xushro‘y.

(“Arbain”, 59-bet)

Demonki ko‘ngli poku ham ko‘zi pok,
Tili poku, so‘zi poku o‘zi pok.

(“Xamsa”, 175-bet)

7. So‘zlaganda o‘ylab so‘zla, tushunib, bilib gapir:

So‘zni ko‘nglingda pishirmaguncha tilingga kelturma.
Harnakim ko‘nglingda bo‘lsa til surma.

(“Mahbub ul -qulub”, 83 – bet.)

8. Xushmuomala shirinso‘z bo‘l. Tiling birla kishilarga ozor berma:

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har neki ag‘yor durur yor aylar.
So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,
YUmshog‘i ko‘ngliga giriftor aylar.

(“Nazm ul-javohir”, 43-bet)

9. CHin, to'g'ri so'zla, nutqingda halol bo'l. YOlg'on so'z baxtsizlik keltiradi. CHin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar ...

(“Mahbub ul -qulub”, 63 – bet.)

Xiradmand chin so'zidin o'zga demas,
Vale bari chin ham deguluk emas.
Kishi chinda so'z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo'lsa avlo durur.

(“Mahbub ul -qulub”, 63 – bet.)

10. YAxshi so'z, ya'ni nutq kishiga obro' va baxt keltiradi.

Ezgu so'zli bo'l:

Kim istasa mazhari karomat bo'lmoq,
Har nav' ishda istiqomat bo'lmoq,
So'zlar ancha mujibi g'aromat bo'lmoq,
Til zabtidadur anga salomat bo'lmoq.

11. Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan:

Birovkim yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro bo'lg'on yuzni yog'lag'ay.

(“Mahbub ul -qulub”, 61 – bet.)

El aybini ayturg'a birovkim uzotur til,
O'z aybini fosh aylagali uzotur bil.

(“Mahbub ul -qulub”, 69 – bet.)

12. Tilingni tiy. Ko'p so'z, ezma va vaysaqi bo'lma. Bu zararlidir. Befoyda so'zda ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma. Oz degan yanchilur, oz egan oz yiqilur.

(“Mahbub ul -qulub”, 82 – bet.)

Til ilmidin bo'lur g'aromat hosil,
YUz nav' nadomatu malomat hosil.
Oz so'zlagandin istiqomat hosil,
Soqitligidin vale salomat hosil.

(“Nazm ul javohir”, 31 –bet)

13. So‘zlaganda sharoitni, suhbatdoshingni hisobga ol.

Noo‘rin so‘z aytma

14. Bo‘shog‘iz bo‘lma, suhbat sirlarini saqlashga o‘rgan:

Qaysi majlisda kim eshitsang so‘z,

Bilgil u so‘z senga omonatdur.

Gar ani o‘zga erga naql etsang,

Ul omonatga bu xiyonatdur.

(“Arbain”, 57-bet)

15. Gapirganda qaytariqlardan qoch, chunki ular fikrining ta‘sirini susaytiradi:

Bir deganni ikki demak xush emas,

So‘z chu takror topdi dilkash emas.

Nutq odobiga qo‘yilgan ushbu talablar nutq me‘yorlari sifatida asrdan – asrga o‘tib kelayotir. Har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini mujassam etayotir. Demak, kishilar azal – azaldan to‘g‘ri ta‘sirchan, chiroyli, jozibali, yaxshi gapirishga intilib kelganlar.

Notiqlik san‘atiga nazar tashlar ekanmiz, u eramizdan avvalgi V asrda YUnonistonda shakllanganiga shohid bo‘lamiz. Notiqlik san‘atining etuk namoyondalari etishib chiqdi. Davlat ishlarini boshqarishni istagan har bir kishi uchun chiroyli so‘zlash san‘ati majburiy bir ehtiyojga aylandi. Notiqlik san‘atining yirik vakili TSitsironning ta‘kidlashicha, dunyo ikkita san‘at mavjud: harbiy va notiqlik. Plutarx ham bu san‘atni hayotiy zaruriyat deb biladi. Aristotelning “Riterika” kitobi uch kitobdan iborat bo‘lib birinchi va ikkinchi kitoblari chiroyli so‘zlash, tinglovchini ishontirish metodlari haqida fikr va mulohazalardan iboratdir. Uchinchi kitob esa mantiqqa bag‘ishlangan.

O‘zbek notiqlik, ya‘ni voiz san‘at ham o‘z tarixiga ega. Farobiy, Ibn sinolar o‘z asarlarida voizlik san‘atiga ham alohida e‘tibor berganlar.

“Qobusnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Arbain”, “Nazmul javohir” asarlarida ham voizlik o‘g‘itlari mujassamdir. Ko‘plab voizlar etishib chiqqan:

Voiz Muhammad Rafi’, Voiz Kazvaniy, Voiz SHirvoniy Husayn Voiz Koshnoriy va boshqalar.

Notiqlik (voizlik) san’ati nutq madaniyatning asosidir.

Nutq madaniyati avvalo adabiy til va uning me’yorlari bilan bog‘liqdir. Adabiy til o‘zaro aloqa vositasi sifatida o‘zi xizmat qilayotgan millatning barcha vakillari uchun umumiydir. Kishilardan nutq madaniyatini, ya’ni to‘g‘ri so‘zlash va yozishni talab qilish uchun bunga vosita bo‘ladigan qurolni belgilash lozim. Ushbu qurol esa adabiy tildir. Adabiy tilning o‘ziga xos xususiyati uning me’yorlariga asoslanishdir.

O‘zbek adabiy tili me’yorlari quyidagicha tasnif qilinadi:

- 1) Leksik – semantik me’yorlar (so‘z qo‘llash), 2) talaffuz (orfoepik) me’yorlari, 3) aktsentologik me’yorlar (urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish), 4) fonetik me’yorlar, 5) grammatik (morfologik va sintaktik) me’yorlar, 6) so‘z yasash me’yorlari, 7) orfografik me’yorlar (imlo), 8) yozuv me’yorlari, 9) punktuatsion me’yorlar (tinish belgilari), 10) uslubiy me’yorlaryu ushbu me’yor turlarining har biriga o‘nlab qoidalar ishlab chiqilgan. Jumladan, jarangi undoshlarning so‘z oxiri jarangsizlashuvi, assimilyatsiya va dissimilyatsiya hodisalarining mavjudligi, egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda o‘zakda bo‘ladigan o‘zgarishlar va hokazo. Xullas me’yor tilning ijtimoiy vazifa bajarishidagi asosiy sharti bo‘lib, unga amal qilish shu tilda so‘zlashuvchilar uchun majburiydir. O‘zbek tilining qanchalik umum milliy o‘zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir.

2 – MAVZU

NUTQ TOVUSHLARI

Inson turli xil tovushlar girdobida yashaydi. SHlisserburg qal'asida maxbuslarni sokinlik, ya'ni jimjitlik bilan jazolashgan ekan. Uzoq jimjitlikka inson bardoshi dosh bera olmaydi. Suvning shildirashi, shamolning g'uvillashi, olovning chirsillashi, chigirtkaning chirillashi, qushlarning sayrashi, musiqa ohangi singari turli tuman tovushlar insonni jim – jitlik balosidan asraydi. SHu bilan birga insonning o'zi ham tovushlar chiqaradi. Inson tovushi, ya'ni nutq tovushlari tabiatdagi boshqa tovushlardan nima bilan farq qiladi?

Nutq tovushlari tabiatdagi boshqa tovushlardan ma'no bildirishiga ko'ra farq qiladi. Nutq tovushlari uzvlari yordamida namoyon bo'ladi. Nutq uzvlar talaffuz apparati, nafas uzvlari, bo'g'iz, tomoq bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'idan tashkil topadi. Nutq uzvlari faol nutq uzvlariga va nafaol nutq uzvlariga bo'linadi. Faol nutq uzvlariga lab, kichik tilcha, yumshoq tanglay, tovush paychalari kiradi. Nafaol nutq uzvlariga esa qattiq tanglay, milk va tishlar kiradi. Nutq tovushlari avvalo, 2 ga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Undan, ya'ni ovozdan tashkil topgan tovushlar unli tovushlardir. Ma'lumki, biz talaffuz qiladigan tovushlarni yozuvda xarflar bilan ifodalaymiz.

UNLI TOVUSHLAR TASNIFI

O'zbek tilida oltita sof unli bo'lib, ular yozuvda quyidagicha ifodalangan: **i, e, a, u, o', o**. Unli tovushlar uchta manbaga ko'ra tasnif qilinadi: Paydo bo'lish o'rniga ko'ra ikkiga bo'linadi: old qator, orqa qator. Old qator unilarga **i, e, a** unilari, orqa qator unilarga esa **u, o', o** unilari kiradi. Lablarining ishtirokiga ko'ra unlilar ikkiga bo'linadi: lablanmagan unlilar, lablangan unlilar. Barcha old qator unilari, ya'ni i, e, a unilari lablanmagan unlilardir, chunki ularning talaffuzida lablar faol ishtirok etmaydi. Barcha orqa qator unilari, ya'ni **u, o', o**, unilari esa lablangan unlilardir. CHunki ularning talaffuzida lablar faollashadi. Sof unlilardan tashqari yana to'rtta yollashgan unlilar

mavjud: ya, e, yo, yu. Ularda 2 ta tovush bir xarf bilan ifodalangan ya (y+a), e (y+e), yo (y+o), yu (y+u).

UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI

1. Undosh tovushlar paydo bo'lish o'rniga ko'ra avvalo 3 ga bo'linadi:

1. Lab undoshlari: b, p, v, f, m

2. Til undoshlari. Til undoshlarining o'zi to'rtga bo'linadi:

a) Til oldi: t, d, s, z, sh, j, ch, l, n, r:

b) Til o'rta: y

v) til orqa: k, g, ng

g) chuqur til orqa q, g', x

3. Bo'g'iz undoshi: h

2. Paydo bo'lish usuliga ko'ra undoshlar ikkiga bo'linadi: portlovchi, sirg'aluvchilar. Talaffuz qilish jarayonida o'pkadan chiqayotgan havo bo'shlig'ida to'planish natijasida portlab chiqsa portlovchi undoshlar deyiladi. O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida to'planmay, sirg'alib chiqsa sirg'aluvchi undosh deyiladi.

Portlovchi: b, p, m, t, d, j, ch, k, l, n, r, q, g'

Sirg'aluvchilar: v, f, s, z, j, sh, y, x, h

3. Ovozning ishtirokiga ko'ra undoshlar 2 ga bo'linadi:

Jaranglilar: b, d, z, v, g, j, y, l, n, r, m

Jarangsizlar: p, t, s, f, k, sh, ch, q, x, h

Demak, jarangli undoshlarning ko'pchiligi o'zining jarangsiz juftiga ega:

b, v, d, z, g, j, g', y, l, n, r, m — —

p, f, t, s, k, sh, ch, q — — x, h

Jarangli undoshlar talaffuzda ko'pincha so'z oxirida, ba'zan so'z o'rtasida ham jarangsizlashadi, ya'ni o'zining jarangsiz juftiga aylanadi: odob, rubob, javob, savod, murod, odob, ibtidoiy, tuzsiz, barg, pedagog, g'ijjak.

“‘” belgisi 2 xil vazifa bajaradi: o‘zidan oldingi unlini uzaytiradi: she‘r, fe‘l, ma‘no, va‘da: unlini undoshdan ajratadi: san‘at, mas‘ul, da‘vo. “‘” belgisi tushurib qoldirsa, ma‘no o‘zgartirib yuborishi mumkin: da‘vo – davo, she‘r – sher, san‘at – sanat, sur‘at – surat.

So‘z oxiri qator kelgan undoshlardan biri talaffuzida tushib qoladi: do‘**s**(t), go‘**sh**(t), Toshken**(t)**, Samarqan**(d)**, xursan**(d)**.

Qo‘shaloq undoshlardan biri tushurilsa, ma‘nosi o‘zgaradigan so‘zlar guruhi mavjud: mashshoq – mashoq, ushshoq – ushoq, qattiq –qatiq.

Talaffuzda y undoshi ortirilishi mumkin oila (oyila) teatr (teyatr). Rosmana talaffuz qilinadigan, lekin yozilmaydigan unlilar mavjud zehn (zehin), qism (qisim), fikr (fikir), ilm (ilim).

3-MAVZU

NUTQ MADANIYATI MEZONLARI

Nutq madaniyati so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rishi bo‘lib faqat lisoniy hodisa emas, balki insonning ichki kechinmalari bilan bog‘liq ruhiyat va nafosat, hodisasi ham hisoblanadi. Nutqning quyidagi mezonlari mavjud: nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi ta‘sirchanligi.

NUTQNING TO‘G‘RILIGI

Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi asosiy mezon hisoblanadi. Chunki nutqning to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi so‘zlovchi va tinglovchining, shuningdek, yozuvchi a kitobxonning bir – birlarini tez va oson tushunishlarini ta‘minlaydi.

Agar nutq to‘g‘ri bo‘lsa, aniq ham mantiqiy ham, ta‘sirchan ham bo‘la olmaydi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi, eng avvalo uning adabiy til me‘yorlariga muvofiq kelishidir. Ayniqsa, nutqning to‘g‘ri bo‘lishi urg‘u va grammatik

me'yorlarga muvofiq kelishidir. Ayniqsa, nutqning to'g'ri bo'lishi urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo etadi. Masalan, urg'u o'zbek tilida ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushdi. Qo'shimcha qo'shilishi bilan urg'u ham kuchayadi: talabalarimizga. Lekin urg'u oldingi bo'g'inga ko'chgan holatlar ham mavjud. Jumladan, fe'l, ravish va ayrim olmoshlarning turida urg'u oldingi bo'g'inda: keldi, hamma, barcha, qushcha (aqlning yo'q), yigitcha (qariyaga nisbatan). Urg'u 3 ta vazifani bajaradi: so'zni shakllantiradi, boshqa so'zni chegaralaydi, ma'no farqlaydi. So'zga aloqador urg'uning turi so'z urg'usi deyiladi. Masalan, urg'usi noto'g'ri qo'yilsa, ma'no o'zgaradigan so'zlar mavjud: atlas – atlas, olma – olma, yig'ma – yig'ma, qo'llar – qo'llar, ishlar – ishlar, yangi – yangi, hozir – hozir. So'z urg'usidan tashqari mantiq urg'usi ham mavjud bo'lib, nutqning to'g'riligini mantiq urg'usi ham mavjud bo'lib, nutqning to'g'riligini ta'minlashda uning ham ahamiyati kattadir. Mantiq urg'usini olgan so'z hamisha kesimning oldida joylashadi. Tinglovchiga etkazilishi shart bo'lgan so'zga alohida urg'u beriladi, ya'ni bo'rttiriladi:

Men kutbxonaga kecha bordim.

Kutbxonaga kecha men bordim.

Bundan tashqari, ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladigan, emfatik urg'u ham mavjud: Kaaatta bino, uzuuun ko'cha, chiroooy qiz. Demak, talaffuzda urg'uga aloqador me'yorlarni ham saqlash lozidir.

Grammatik me'yorlarga rivoya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash, ega kesim mosligiga erishish, ikkinchi darajali bo'laklarning bosh bo'laklarga bog'lanishlarning qonuniyatlariga e'tibor berish ko'zda tutiladi.

Demak, til xazinasidan kerakli so'z, kerakli grammatik shakllarni tanlash va o'z o'rnida ishlatish, ya'ni nutqning to'g'ri tuzilishiga erishish nutq madaniyatining asosiy mezonidir.

4 – MAVZU

NUTQNING ANIQLIGI

Aniqlik ham nutqning etakchi mezonlaridan hisoblanadi. Agar nutqning to‘g‘riligini ta‘minlashda lisoniy me‘yorlar muhim o‘rin tutsa, nutqning aniqligiga tashqi faktorlar ham ta‘sir ko‘rsatadi. Aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning atamasi orasidagi mutanosiblik tushuniladi. Agar inson tafakkuri, bilimlari so‘zda aniq ifodalanmagan bo‘lsa, u tinglovchiga tushunarsiz bo‘lib qoleveradi. Maqsad – aytilgan fikrning tinglovchiga tushunarli bo‘lishiga erishishdan iboratdir. SHu nuqtai nazardan ushbu mezon nutq madaniyatining zarur shartidir.

Demak, aniqlik so‘zning ifodalanayotgan voqealikka to‘la muvofiq kelishidir. Nomuvofiqlik esa nutqiy g‘alizlikka olib keladi. Nutqning aniqligini ta‘minlashda quyidagi lisoniy hodisalarga ko‘proq ahamiyat berish lozim.

SINONIMLARNING ROLI

O‘zbek tilida sinonimlarning imkoniyati keng. Sinonimlar ma‘nosiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: to‘liq sinonimlar ma‘noviy sinonimlar. To‘liq sinonimlar ma‘nosidava qo‘llanishida bir-biridan farq qilmaydigan, ya‘ni birining o‘rniga ikkinchisini qo‘llash mumkin bo‘lgan sinonimlardir: kosmos – fazo, tilshunoslik – lingvistika, poema-doston. To‘liq sinonimlar boshqa tillardan so‘z olish hisobiga paydo bo‘ladi.

Ma‘noviy sinonimlarda esa so‘zlar bir –biridan nozik ma‘nosi bilan farq qiladi: nam, xo‘l, shalabbo xo‘llik darajasi har xil. Ularni birining o‘rniga ikkinchisini ishlatish mumkin emas. Sinonimlar qo‘llanishiga ko‘ra uslubiy sinonimlarga ajratiladi: oftob – quyosh, ko‘klam – bahor, tashrif buyurdi –

keldi. SHuningdek, iboralar ham bir-biriga sinonim bo‘lib kelishi mumkin: og‘zi qulog‘ida – boshi ko‘kka etdi – og‘zining tanobi qochdi. Iboralar so‘zga sinonim bo‘ladi: tishini – tishiga qo‘ydi – chidadi. Faqat so‘z va iboralar sinonim bo‘lib qolmasdan qo‘shimchalar ham sinonim bo‘la oladi: unumli, serunum, unumdor.

SHuningdek, so‘z va iboralarni to‘g‘ri qo‘llash, ayniqsa ko‘p ma’nolilik imkoniyatlardan keng foydalanish, har bir ma’noni o‘z o‘rnida qo‘llash nutqning aniqligiga xizmat qiladi. Masalan: Bo‘yi mendan kattaroq. Katta so‘zining o‘rniga balandroq so‘zini ishlatish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Aniqlik uslublar doirasida har bir uslubni o‘z o‘rnida qo‘llashni ham taqozo etadi.

Demak, aniqlik avvalo o‘zbek tilini chuqur bilishni, shu bilan birga uni qo‘llash doirasini ham puxta o‘rganishni talab etadi.

5 – MAVZU

NUTQNING MANTIQUIYLIGI

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy mezonlari bo‘lmish to‘g‘rilik va aniqlik bilan uzviy bog‘liqdir. Haqiqatdan ham, lisoniy jihatdan to‘g‘ri tuzilgan materiallarni yaxshi bilmaslik mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq etib bormasligi, ba’zan butunlay anglashilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Nutqning mantiqiy bo‘lishi eng avvalo so‘zlovchining tafakkur quvvati va qobiliyati bilan bog‘liqdir. SHundan kelib chiqiladigan bo‘lsa, mantiqiyligi faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki nolisoniy hodisa sifatida ham nomoyon bo‘ladi, ya’ni notiqdan faqatgina tilni yaxshi bilish emas, o‘zi mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida chuqur bilimga ega bo‘lish va ifoda jarayonida izchillikni ta’minlash taqozo etiladi. Nutq to‘g‘ri tuzilmaganligi, aniq ifodalanmaganligi, izchillik ta’minlanmaganligi oqibatida mantiqsizlik

kelib chiqadi, xalq tabiri bilan aytganda “bog‘dan kirib tog‘dan chiqiladi”. CHunki, nima noaniq tasavvur etilsa, noaniq ifodalanadi. Noaniq ifoda esa fikr chigalligi, ya’ni mantiqsizlik demakdir.

Nutq mantiqiyligining asosiy lingvistik omili – leksik – semantik va sintaktik me’yorlar hisoblanadi.

Quyidagi jumalardagi mantiqsizlikka e’tibor bering:

Endi kuy va raqslar tinglab dam oling. (“Televideniya”dan). Kuyni tinglash mumkin, lekin raqsni tinglab bo‘lmaydi-ku!

Bufetchi Toji Ibroximov kitobga 50 so‘m qo‘yib sotmoqda. Kitobgami, kitobning narxigami? Davron uni qo‘yarda-qo‘ymay choyga o‘tqazdi. Suratga olingan akula quruqlikdagi sut emizuvchilarga o‘xshab tuxum qo‘ymaydi, balki tirik bola tug‘adi. (“Fan va turmush”dan). Bundan quruqlikdagi sut emizuvchilar o‘lik bola tug‘ar ekan, degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Aslida muallif “Suratga olingan akula tuxum qo‘ymaydi, balki quruqlikda sut emizuvchilarga o‘xshab tirik bola tug‘adi” – demoqchi edi.

Ko‘r – ko‘rona, so‘zma – so‘z qilinadigan tarjimalar ham mantiqsizlikni keltirib chiqaradi: Erkak paypoqlar narxi 30 foiz arzonlashtiriladi.

YOzuvchi A.Qahhorning “Adabiyot muallimi” hajviy hikoyasining bosh qahramoni Baqijon Baqoevning nutqi mantiqsiz nutq uchun xarakterli misol bo‘la oladi.

SHunday qilib, nutqning mantiqiyligi deganda eng avvalo adabiy tilning lisoniy me’yorlarga muvofiq kelishi, fikrlar rivoji izchil bo‘lishi, har bir so‘z, ibora aniq maqsadga qaratishi tushuniladi.

Ayniqsa, qo‘shiq manbai hisoblangan she’r nutq talablariga to‘liq javob berg‘i lozim. Qo‘shiqqa katta mas’uliyat yuklanadi. CHunki xonanda o‘z ijrosi bilan uch kishining (shoir, bastakor, xonanda) mehnatini ko‘plab tamoshabinlar hukmiga havola etadi. SHuning uchun har qanday she’rni qo‘shiq qilib bo‘lmaydi. SHE’riy nutqning talabi oddiy nutqning talabi yuksakroqdir.

She'ning har bir so'zi olam-olam ma'no ifodalashi lozim. Bunga mumtoz she'riyatimiz misol bo'la oladi. Masalan:

O'qlaring ko'nglumba tushgan, kuydi ham ko'z ham badan,

Kim kuyar ulu qurug' chun nayistonga tushdi o't.

Ish o'qi ko'ngulga tushgach, avvalo uni ko'rgan barovar yongandek, butun badan kuydi, keyin huddi qamishzorga o't tushsa, ho'lu quruq barovar yongandek, butun badan kuydi. Buni butun qo'shiq qilib kuylayotgan "zamonaviy yonish" bilan qiyoslang:

"YOnaman men,

Kuyaman men,

Afsonalar bo'laman men".

6 – MAVZU

NUTQNING SOFLIGI

Nutqning sofligi deganda uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelish, ya'ni noadabiy qatlamlardan xoli bo'lishi ko'zda tutiladi.

Nutqning sofligiga putur etkazadigan lisoniy unsurlar, ya'ni noadabiy qatlamlarga dialektizmlar, varvarizmlar (chetdan kirgan so'zlarni noo'rin, haddan tashqari ko'p ishlatish) arxaizm kabilar kiradi.

Nutqning sofligini ta'minlash uchun uni keraksiz so'z va iboralardan holi bo'lishga erishish lozim. SHuningdek, har bir uslubni o'z o'rnida qo'llash ham nutqning sofligini ta'minaydi. Masalan: A.Qahhorning "Nutq" hajviy hikoyasidagi qahramon nutqi notabiy va samimiy nutqqa misol bo'la oladi.:

"O'rtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali qilayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!" E'tibor bering: suhbatda o'nlab, yuzlab, kishi emas, faqat ikki kishi er va xotin ishtirok etyapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb o'ylaydi, "qiyqirib chapak chaldi". Ammo notiq jiddiy qiyofada

nutqni davom ettiradi. “Birinchidan”, “ikkinchidan” deb oiladabir yil davomida ro‘y bergan yutuq va kamchiliklarni sanab o‘tadi va nutqni shunday yakunlaydi: “SHu bilan qisqacha so‘zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to‘la ishonch bildirishga ijozat bering”.

Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. U o‘zini keng eshituvchilar ommasiga mo‘ljallangan “notiq” deb hisoblaydi, qanday vaziyatda nima gapirishni bilmaydi. Tilning amaliy qonuniyatlarini sayoz tushunadi. Natijada nutqi notabiiy va kulguli chiqadi. Til zargari A.Qahhor ana shunday, o‘z ta‘biri bilan aytganda, “bisotidagi bir hovuch so‘zni aylantirib kun ko‘rib yurgan” lektor ustidan kulib.

Og‘zaki nutqda ba‘zan uchrab turadigan so‘kinish haqorat, qarg‘ish so‘zlari jamiyatimizning axloq me‘yorlariga zid hodisa sifatida nutqimiz sofliğiga ham salbiy ta‘sir qiladi.

So‘zlashuv nutqida ba‘zan notiq o‘z nutqini nazorat qilmaganligi, bee‘tiborligi oqibatida ayrim ortiqcha so‘zlarni takrorlashga o‘rganib qoladi. Xush, demak, masalan, ya‘ni so‘zlari shular jumlasidandir.

Bir ma‘ruzachining ma‘ruzasini kuzatgan taniqli olim A.Ahmedov ma‘ruzachi o‘z nutqida o‘rtoqlar so‘zini 101 marta, ya‘ni so‘zini 73 marta, demak, so‘zini 60 marta takrorlaganini e‘tirof etadi.

Bir soatlik nutqda 234 ta “bekorchi” so‘z ishlatilgan. Bunday so‘zlar ham nutq madaniyatiga yot so‘zlardir.

Demak, nutq sohibi o‘z nutqini ustida tinimsiz ishlashi, nutqni nazorat qilishi, tilga mas‘uliyat bilan yondoshishi lozimdir.

7 – MAVZU

NUTQNING QISQALIGI VA IXCHAMLIGI

“CHin so‘z mo‘qtabar,
YAxshi so‘z
muxtasar”

(Alisher Navoiy)

Nutq madaniyatining yana bir mezoni ixchamlik va qisqalikdir. Chunki sodda va qisqa nutq tinglovchini zeriktirmaydi. Aytilayotgan voqea hodisalar aniq, to'g'ri, mantiqiy, sof va ravon bayon etilishi ham zarur. Katta mazmunni qisqa jumlagi jo etish ham so'zlovchidan ulkan mahorat talab qiladi. Mashhur so'z zargarlari darajasiga erishgan shoiru adiblar shunday mahorat sohiblari bo'lganlar.

Fikrimizning isboti uchun quyidagi parchaga e'tibor bering:

“Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqlardan qur'on tovushi eshitiladi. Ikki tup chinor butoqlarida qo'nib o'tirgan uch-to'rtta boyqushlar qabr yoniga tizlangan Otabek va yuqori, quyi do'mbaygan qabrlar bu tilovatga somi' kabi edilar. Qur'on oyatlari qabriyatoni ichida og'ir ohangda oqar edi. Qabr yoniga tiz cho'kkan yigitning ko'z yoshlari qur'on oyatlariga qo'shib oqar edi. Biron soatdan keyin tilovat tindi. Otabek holsizlanib, oyoq uzra turdi va orqaga yarim yalang'och ko'lagani ko'rib, bir necha qadam qabr tomonga tislandi... Ko'laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

- Kim bu?
- Men Kumush...

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

- Ket mundan!
- Men Kumush, - dedi Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga “ket” amrini bergan edi. Zaynab orqasiga qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi”.

Keltirilgan parchada yozuvchi Otabek va Zaynabning fojeasi qabrda yotgan Kumushning fojeasidan kam emasligini so'z bilan ta'riflab o'tirmaydi, quruq bayonga berilmaydi. Qur'on oyatlariga qo'shib oqayotgan ko'z yoshlari Otabekning musibati naqadar og'ir ekanini ko'rsatib turadi. Otabegini qabr yonidan qidirib topgan majnuna Zaynab inson qiyofasidan chiqib ketgan u “ko'laga”. Otabekni sevib Kumushdan-da sevimli bo'lishni istab shu kuyga

tushgan. Lekin, shu holatida ham Otabekka faqat Kumush kerakligini fahmlaydi. Kumush bo‘lgisi keladi. “Men Kumush” deyishi bilan Zaynabning ayanchli qismati butun murakkabligicha ko‘z oldimizga keladi. YUqoridagi muxtasar parchada yozuvchi roman qahramonlarining musibatlarini tasvirlaydi, kitobxon qalbini larzaga soladi.

Xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, matallar qo‘shiqlar ixchamlikning namunasi hisoblanadi. Lekin, ushbu muxtasar satrlar zahirida olam-olam mazmun jo etilgan.

Demak, nutqdagi qisqalik va ixchamlik so‘zlovchining lisoniy bilimi, so‘zni o‘rinli tanlay olishi, gaplarini muxtasar tuza bilish mahoratiga bog‘liqdir.

8- MAVZU

NUTQNING BOYLIGI

O‘zbek tili nutqining rang-barangligini ta‘minlovchi lisoniy hodisalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ana shunday lisoniy hodisalardan eng muhimi so‘zlardagi ko‘p ma‘nolilikdir. So‘z ma‘nosiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: bir ma‘noli so‘zlar, ko‘p ma‘noli so‘zlar. Bir ma‘noni anglatgan so‘zlar bir ma‘noli so‘zlar, bir necha ma‘noni anglatgan so‘zlar esa ko‘p ma‘nolidir. Masalan, chumchuq – bir ma‘noli so‘z hisoblanadi. Ko‘z so‘zi esa ko‘p ma‘noli so‘zdir: odamning ko‘zi, xayvonning ko‘zi, yog‘ochning ko‘zi; yoqa: ko‘ylakning yoqasi, suvning yoqasi, yo‘lning yoqasi. Nutqning boyligini ta‘minlashda ko‘p ma‘noli so‘zlarning har bir ma‘nosini bilish taqozo etiladi. Izohli lug‘atlardan ko‘p ma‘noli so‘zlarning har biri alohia izohlanadi. Demak, izohli lug‘atlar bilan ishlash orqali so‘zlarning ma‘nolarini o‘zlashtirish mumkin.

Nutqning rang-barangligini ta‘minlovchi lisoniy hodisalardan yana biri so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatlariga ko‘ra turlaridir, ya‘ni sinonim, omonim, antonim, paronim so‘zlardir. Ma‘lumki, shakli har xil ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlar sinonimlardir. O‘zbek tili, ya‘ni nutqi ortiqcha takroni

yoqtirmaydi. Takrorlar uslubiy g'alizlikni keltirib chiqaradi. Agar so'zlovchi so'zning sinonimlarini yaxshi bilsa, aynan takrordan xoli bo'ladi. Lekin ma'noviy sinonimlarni qo'llashda ma'nodagi nozik farqlarga ehtiyot bo'lish lozim, chunki ularni har doim birining o'rniga ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi: kuldi, jilmaydi, tirjaydi, ishshaydi, tabassum qildi. SHuningdek, uslubiy sinonimlarni ham o'z o'rniga qo'llash talab etiladi. Taomil qildi, ovqatlandi, ovqat edi. Tilimiz shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlarga boy. Bunday so'zlarni omonim so'zlar deymiz. Ot (atama), ot (hayvon), ot (harakat, otmoq fe'lining o'zagi): o't (maysa, olov, harakat – o'tmoq fe'lining o'zagi, tana a'zosi – o't pufagi).

Omonim so'zlar adabiy janr omonim so'zlardan foydalaniladi va u tajnis san'ati, (ya'ni jinsdosh) deb ataladi.

Men behol aylagan yor oydurur,
Kim aning vasli menga yoroydurur.
Gar visoli bo'lmasa ketmoq erim,
YO Xuroson, yo Xitoy, yo Roydurur.

Nutqning rang-barangligini ta'minlashda antonim so'zlarning ahamiyati ham katta. CHunki nutqda zid ma'noli so'zlarni qo'llash orqali nutqning ta'sir kuchi oshiriladi. Antonim so'zlar ham omonim so'zlarga o'xshab mumtoz adabiyotda she'riy san'at yaratishda ishtirok etadi. Tazod san'ati "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi. Baytlarda zid ma'noli so'zlarni qo'llash orqali ta'sirchan badiiy timsollari yaratish ko'zda tutiladi.

Rahm qilg'in bandag'a, ey shoh tangri uchun
Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan.

Faqatgina soʻzlar sinonim, omonim, antonim boʻlib qolmasdan iboralar va hatto qoʻshimchalar ham shu xususiyatlarga ega boʻlishi mumkin. Boshi koʻkka etdi – ogʻzi qulogʻida – ogʻzining tanobi qochdi (sinonim iboralar).

Ser – li (sinonim qoʻshimcha)

Ogʻziga olmadi (gapirmadi, emadi) – omonim iboralar

- chi (soʻz yasovchi, yuklama) – omonim qoʻshimcha.
- Mum tishladi – jagʻi ochildi (antonim iboralar)
- li, - siz (antonim qoʻshimchalar).

SHuningdek, tilda talaffuzi oʻxshash, maʼnosi esa har xil boʻlgan paronim soʻzlar ham mavjud. Paronim soʻzlarning talaffuzi nutq sohibidan xushyorlikni talab qiladi. CHunki bunday soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish maʼnosini butunlay oʻzgartirib, boshqa soʻzga aylantirib yuboradi: kasr – qasr, dalil – dadil, otalik – otaliq, boʻshlik – boʻshliq, asr- asir, ahl – ahil, oʻn – un, on – oʻn.

Bulardan tashqari, tilimiz koʻplab grammatik shakllarga ega (kelishik, egalik, soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi, qoʻshimchalarga, sifatdos, ravishdos, harakat nomi, soʻz birikmalari, gap turlari qoʻshma gapning turlari). Ulardan nutqda oʻz oʻrnida foydalanish nutqining boyligi va rang-barangligini taʼminlaydi.

Nutqiy boylilik va rang-baranglikni ifodalashda yuqoridagi lisoniy hodisalardan tashqari lisoniy hodisalar ustida quriladigan intonatsiya ham muhim oʻrin tutadi. Intonatsiya muhim prosodik hodisa boʻlib, u uzunlik, ton, kuch, tembr, pauza va ularning oʻzaro hamkorligi hamda oʻzaro kompensatsiyasidan tashkil topadi. Intonatsiya nafaqat lisoniy hodisa, balki insoniyatning nihoyatda boy ichki kechinmalari bilan bogʻliq psixologik, nutq uzvlarining faoliyati bilan bogʻliq fiziologik omillar bilan ham bogʻliq boʻlgan murakkab hodisadir. Mazmunni tinglovchiga etkazishda leksik va grammatik qurilish bilan birga intonatsiyaning ham roli kattadir. CHunki har qanday soʻz va gapning real maʼnosi intonatsiya yordamida oydinlashadi. A.I.Simirnitskiy

ta'kidlashicha, "intonatsiyasiz gap intonatsiya olgan gapdan murda jonli tanadan qanday farq qilsa, shunday farq qiladi". Demak, intonatsiya nutqning ruhidir. Ulug' rus qo'shiqchisi F.I.SHalyapin intonatsiyaga baho berar ekan, "Temir yo'l poezdni olib yurgandek, intonatsiya fikrni olib yuradi" – deydi. Demak, intonatsiyasiz fikr ifodalash mumkin emas. Yangi bir tilni o'rganishda ayniqsa, intonatsiya eng qiyin o'zlashtiriladi.

SHu bilan birga intonatsiya to'g'ri talaffuzning muhim unsuri sifatida ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham, melodik (ohang) va dinamik (kuch) harakatni to'g'ri yo'naltirish, ma'lum me'yordagi tempda gapirish pauzalardan to'g'ri foydalanish, urg'ularni o'rniga qo'yish nutqqa o'zgacha bir joziba bag'ishlaydi, tinglovchining diqqatini tortadi. Aksincha, intonatsiyani noto'g'ri berish, ya'ni melodik va dinamik harakatni noo'rin yo'naltirish (bir maromda) xaddan tashqari tez yoki sekin gapirish, keraksiz o'rinlarda pauza qilish, urg'ularni o'rniga qo'yimaslik tinglovchini toliqtiradi. Hatto yaxshi mazmunni unga etkaza olmaydi.

SHunisi qiziqki, tilni bilmasdan turib ham, intonatsiyaga maftun bo'lish ham mumkin: frantsuz tilidagi nazalizatsiya, ital'yan tilidagi ritmiklik, hind va arab tilidagi musiqiylik ushbu tillarning o'ziga xos intonatsiyasini vujudga keltiradi.

Intonatsiya universal hodisa. Bu uning tabiatidan kelib chiqadi, ya'ni uzunlik, ton, intensivlik, pauza, urg'u singari cheklangan vositalar yordamida cheksiz imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Demak, nutqiy boylik deyilganda til boyliklaridan unumli va o'z o'rnida foydalanish ko'zda tutiladi.

9 – MAVZU

NUTQNING IFODALILIGI

Nutq madaniyatining eng muhim belgilaridan yana biri – nutqning ifodaliligidir. Nutqning ifodaliligi soʻzlovchining soʻz qoʻllash mahoratiga bogʻliqdir.

Nutqning ifodaliligi deyilganda nimalar tushuniladi?

1. Eng avvalo, soʻzlovchi matnga qaramay, mustaqil holatda soʻzlay bilishi fikrni aniq, loʻnda ifodalay olishi lozim. Takrorlar nutqning ifodaliligini susaytiradi.
2. Tinglovchiga nomaʼlum boʻlgan, bugungi kun uchun muhim masalalar haqida fikr yuritish nutqning ifodaliligini oshiradi. Buning uchun soʻzlovchi avvalo, oʻzi ifodalamoqchi boʻlgan fikrga oid materialni yaxshi bilishi, kundalik yangiliklar bilan oʻz vaqtida tanishib borishi va uni tushunarli shaklda ifodalay olish mahoratiga ega boʻlishi lozim.
3. Tinglovchiga tushunarli boʻlmagan, yoki oʻzi etarli darajada bilmagan soʻzlarni ishlatmaslik lozim. Chunki notanish soʻz nutqning boshqalarga etib borishiga halaqit beradi, uning ifodaliligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Nutqdagi ortiqchalik, uslubiy gʻalizlik uning ifodaliligini, rang-barangligini, mantiqiylikini buzadi.
4. Soʻzlarni, har bir tovushini aniq talaffuzda qilish ham nutqning ifodaliligini taʼminlovchi vositalardan biridir. Nutqning ifodali, ravon chiqishi uchun har bir soʻzgina emas, hatto har bir tovushning talaffuziga ham alohida eʼtibor bermoq kerak. Gʻaliz talaffuz qilingan soʻz tinglovchiga aniq etib bormaydi. Bunday holat koʻproq fonetik jarayonlarda namoyon boʻladi. Doira (musiqasi asbobi, aylana), amr – amir, asr – asir, feʼl (turkum, harakter).
5. Nutqning ifodaliligini taʼminlovchi vositalardan yana biri soʻzlardagi urgʻuni oʻz oʻrnida ishlatishdir. Ayniqsa, soʻz va mantiq urgʻulariga amal qilishning ahamiyati kattadir.
6. Nutqning ifodaliligini taʼminlovchi muhim vosita sifatida intonatsiyaning oʻrni beqiyosdir. Ohang va kuchning koʻtarilishi, tushishi va toʻgʻri

xarakat qilishi, tempning sekinlashuvi va tezlashuvi, psixologik, fiziologik, xezitatsion pauzalar qilish, urg‘uli bo‘g‘inlar talaffuziga alohida e‘tibor berish nutqning ifodaliligini oshiradi.

Ba‘zan bir jumlani turli intonatsiya bilan aytish mumkin:

Kelsinlar jumlasini “keling”, “menda nima ishingiz bor”, “men sizni kutib o‘tiribman”, “bizda qanday ishlari bor?”, “siz kimsiz?” tarzda ifodalash mumkin.

7. Nutqda xalq maqollaridan, hikmatli so‘zlardan frazeologik iboralardan o‘rinli foydalanish ham nutqning ifodaliligini ta‘minlaydi.
8. Nutqda uslubiy mutanosiblikni ta‘minlash ham nutqning ifodaliligini oshiradi. Masalan: Ona zamin uzra tole‘ing kulsin. Zamin uzra, tole‘ so‘zlari badiiy uslubga xosdir. Ona kulsin so‘zlari esa uslubiy hoslanmagan so‘z hisoblanadi. Demak, ushbu jumladagi so‘zlar uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlangan.

Nutqning ifodaliligini oshirishda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Chunki, nutqda badiiy tasvir vositalarini qo‘llash orqali ifodalilikka erishish mumkin. Ziyoli, ayniqsa, san‘atkor o‘z nutqining badiiy bo‘lmog‘iga erishmog‘i joizdir.

10- MAVZU

NUTQNING OBRAZLILIGI

Tilning tasviriy vositalari va nutq madaniyati

So‘zlovchi o‘zi bayon qilgan fikrni tinglovchiga ixcham, aniq, tushunarli va ta‘sirchan qilib etkazib berishga harakat qiladi. Uzundan uzoq jummalarni qatorlashtirib tashlashdan qochadi, biroq bu o‘rinda o‘z fikrini boshqa vositalardan foydalangan holda lo‘nda va aniq tushuntirishga erisha

oladi. Bunday vositalar tilshunoslik va adabiyotshunoslikda tasviriyy vositalar deyiladi. Tasviriyy vositalar obrazlilikni keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish orqali soʻzlovchi tinglovchining sezgisiga taʼsir qiladi, qisqalikka, aniqlikka erishadi. Buning uchun esa nutq sohibi tasviriyy vositalarning tabiatini, xususiyatini yaxshi bilishi lozim. Ularni koʻr-koʻrona, haddan tashqari koʻp ishlatish yoki nooʻrin ishlatish ham nutq madaniyatini buzadi. Tinglovchilarda nutq muallifiga nisbatan salbiy munosabat uygʻotadi.

Tasviriyy vositalarning maxsus turlari mavjud boʻlib, ular ikkiga boʻlinadi: Troplar, uslubiy figuralar. Biror narsa hodisa nomini, belgisini bashqasiga koʻchirig, oʻxshatish, yaʼni soʻzlarni koʻchma maʼnoda ishlatish troplar deyilardi. Sifatlash, oʻxshatish, metofora, metanomiya, sinekdoxa, mubolagʻa, allegoriya, ramz, kesatiq (ironiya), antifraza, sarkazm, (istehzo), perifraz, jonlantirish, apastrofa kabi vositalar tropning turlaridir. SHuningdek, antiteza, gradatsiya, ritorik soʻroq, koʻp bogʻlovchilik va bogʻlovchisizlik, jim qolish, takrorlar uslubiy figuralarning turlari hisoblanadi.

EPITET (SIFATLASH)

Epitet grekcha soʻz boʻlib, izohlovchi degan maʼnoni bildiradi. Demak, u sifatlovchi – aniqlovchidir. Boshqa sifatlovchi – aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilish, yaʼni koʻchma maʼnod ishlatilish bilan farq qiladi.

Me bir qora tunda tugʻildim,

Tugʻildimu shu on boʻgʻildim.

Qora soʻz koʻchma maʼnoda ishlatilgan (qora turmush). Asosan sifatlardan, baʼzan ot va sifatdoshlardan ham epitet hosil qilish mumkin: poʻlat ot, baxmal qir.

OʻXSHATISH

Eng qadimiy, shu bilan bir ga ko'p qo'llaniladigan tasviriyl hodisa hisoblanadi. O'xshatish to'rt asosiy qismdan tashkil topadi.

- 1) O'xshatilgan narsa
- 2) O'xshatiladigan narsa
- 3) O'xshatish asosi
- 4) O'xshatish vositasi

Tog'lardagi qip – qizil lola,

Bo'lib go'yo yoqut piyola,

Buloqlardan uzatadi suv,

El ko'zidan qochadi uyqu.

O'xshatilgan narsa – lola, o'xshatiladigan narsa – piyola, o'xshatish asosi – yoqut, o'xshatish vositasi go'yo.

O'xshatish tuzilishiga ko'ra quyidagicha bo'ladi.:

- 1) O'xshatish ergash gap tarzida. Erkanib yotadi, U Vatan tuprog'ida, yosh-yosh bola yotganidek, Onaning quchog'ida:
- 2) Izohlovchi – izohlanmish: dala – supra, poya-o'q:
- 3) Frazologik birikma: ko'z qorachig'iday saqlamoq: suvga tushgan nondek:
- 4) CHiqish kelishigi: oltindan qimmat
- 5) – day (- dek), - simon, - ona, - omuz, - larcha, - chasiga qo'shimchalari: gunday, sharsimon, fidokorona, hayratomuz, mardlarcha, harbiychasiga.
- 6) Ko'makchilar: kabi, singari, qadar: bog'lovchi: go'yo, go'yoki: ravish: misoli, yanglig', aynan.
- 7) Emasto'liqsiz fe'l: Bilmaganlik ayb emas, bilishni istamaslik ayb.

11 – MAVZU

METOFORA

Grekcha soʻz boʻlib koʻchim degan maʼnoni bildiradi. Narsa hodisalarning shaklan oʻxshashlikka asoslanib birining nomi ikkinchisiga koʻchishi metofora deyiladi. Boshqacha aytganda, metoforani yashirin oʻxshatish deyish mumkin. Oʻxshatishdan farqi shundaki, unda oʻxshatilgan va oʻxshagan narsa mavjud boʻlsa, metoforada faqat oʻxshatilgan narsa mavjud boʻladi, oʻxshagan narsa esa tushirib qoldiriladi.

Tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi: sodda metofora – bir soʻzdan iborat boʻladi. Gumbaz (osmon), ilon (sovuq odam), arslon, lochin (kuchli), tulki (ayyor).

Murakkab metofora – ikkidandan ortiq soʻzdan iborat boʻladi. Poʻlat ot, zangori kema, zangori oltin, poʻlat qush. Demak, metoforani qoʻllagan nutq sohibi soʻzining oʻz va koʻchma maʼnolari hamda ular oʻrtasidagi yaqinlik va oʻxshashlikni yaxshi bilishi lozim. Budiiy adabiyotda metoforadan unumli foydalanilgan. Sheʼriyatdagi tashbeh sanʼati oʻxshatish va metoforaga asoslanadi.

METONOMIYA

Grekcha soʻz boʻlib boshqacha nom berish degan maʼnoni bildiradi. Metonomiya ham soʻzlarning koʻchma maʼosiga asoslanadi. Maʼno koʻchishi aloqadorlik asosida boʻladi, yaʼni bir-biriga aloqador boʻlgan narsa hodisalarni nomi ikkinchisiga koʻchadi: Navoiyni oldim qoʻlimga (asar). Bir laganni

tushirdim (palov). Qo'lda po'lat shirqillar (qilich). Majlisga butun qishloq keldi.
(odamlar). Majlis qaror qildi (odamlar).

SINEKDOXA

Butun nomi bilan uning qismi yoki qismnomi bilan butunni atash orqali ma'no ko'chishi sinekdoxa deyiladi. Bir umr tirnoqqa zor bo'lib o'tdi. (tirnoq - farzand). Kalning nimasi bor, temirdan tarog'i bor. (kal - odam). Mo'ylov tutoqib ketdi. (mo'ylov - odam). Gunohi ne edi u tilla boshning (tilla bosh – odam).

MUBOLAG'A

“Kattalashtirish”, “kuchaytirish” ma'nosini bildiradi. Badiiy timsol holatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalaydi.

Mehr emas, ohim o'tidin ko'kka etmish bir sharar,
Ayb emasdur gar desam: “Dam o'lsam aflon o'rtanur”
(A.Navoiy)

Ko'kdagi quyosh oshiq erda chekkan oh o'tining bir uchquni emish.

Mubolag'a uch turga bo'linadi: tablig', irg'oq, g'uluv.

Tablig'. Aqlan ishonish mumkin, hayotda ham ro'y berishi mumkin bo'lgan mubolag'a:

Kecha kelgumdir debon, ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

Irg'oq. Aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham hayotda yuz berishi mumkin bo'lmagan mubolag'adir. SHirinning oti oyoqlari chirmashib yiqilay deganda otni ko'tarib oldi va SHirinni ham birga ko'tardi, 1,5,2 km yo'lni bosadi.

Ko'tardi orqasiga badponi,
Nechunkim badpo ul dilraboni
... chu ikki uch yog'och g'om urdi shaydo.

G‘uluv. Aql bovar qilmaydigan, xayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmagan mubolag‘a:

Har qizil gulkim, yuzning shavqida olib islاديم,

Etkach ohim shu‘lasi oni sarig‘ gul aylاديم.

Oshiq qizil yuzli sevgilisini sog‘inib

Qizil gulni hidlagan ekan, uning ohi shu‘lasidan u sariq gulga aylanibdi.

12 – MAVZU

ALLEGORIYA

Grekcha so‘z bo‘lib, kinoya, qochiriq, kesatiq degan ma‘noni bildiradi. Mavhum tushunchalar aniq narsa bilan almashtiriladi.

Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni,

Itga bersang oshingni, itlar g‘ajir boshingni.

Ko‘rpanga qarab oyoq uzat.

SHu o‘rinda it – yomon kishi, ko‘rpa – ahvol, terisiga somon tiqmoq – koyish.

Ko‘proq masal, ertak janrida, publitsistik uslubda ishlatiladi.

SIMVOL – RAMZ

Tong – yoshlik, quvnoqlik, baxt ramzidir.

Tun – baxtsizlik, o‘lim ramzi; qora sovuqlik ramzi.

IRONIYA (KESATIQ)

Grekcha zimdan kuyish, kesatish ma‘nosini bildiradi. So‘zlarni o‘z ma‘nosiga qarama-qarshi ma‘noda qo‘llab, biror kishi uning qilig‘i yoki hodisa ustidan kesatib, masxaromuz kuladi. Navoiy, Qo‘rqma! (uzukni olib tomosha qiladi.) katta xizmatlar evaziga mukofot qilib bersa arziydigan uzuk. Ma!

ANTIFRAZA

Ironiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, biror shaxs yoki narsaga xos bo‘lgan u yoki bu ijobiy hususiyat kulguli ohang bilan inkor qilinib yozuvda u qo‘shirnoq ichiga olinadi.

Egamberdi paxtafurush cholning holiga ko‘p “achindi” va erdi haydab olish uchun bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin “kichkinagina” sharti bor.

SARKAZM

Grekcha so‘z bo‘lib, achchiq zaharxana, istehzoli ta’na, piching demakdir. Ironiyaga yaqin turadi. Ko‘proq satirik asarlarda qo‘llaniladi. SHaxsning, narsa hodisalarning salbiy tomonlari fosh qilinadi.

Navoiy. Xafa bo‘lma Gulim, zamon yanglishlar bilan to‘la. Itning boshi mistaboqda, azizlarning boshi esa erda deysaladi.

Husayin. Nechun avvalroq bilmadim. YAnglishdim. Navoiy. Rahnamo iblis bo‘lgach, yanglishish tabiiydir.

PERIFRAZ

Grekcha aylana, atrof boshqacha gapiraman demakdir. Perifraza narsa va u almashtirilgan tasviriy ifoda o‘rtasida bog‘liqlik, yaqinlik bo‘lishi kerak.

“... shu bilan muhtaram ustoz menga go‘yo muborak ko‘zoynaklarni berdilar”
(ko‘zoynak - CHexov)

“Navoiy”ning muallifi Oybek gap ko‘p, ko‘mir oz. Bo‘sh qop tik turmas.

Perifrazalarga haddan tashqari ko‘p murojaat qilish ijobiy hoisa emas.

JONLANTIRISH

Jonsiz narsalarni inson kabi harakat qildirish, fikrlatish, so‘zlatish jonlantirish deyiladi. Allegoriyada hayvonlar orqali insonlar tushuniladi.

Jonlantirishda esa odamlar tushuniladi. Tashxis va intoq san'ati jonlantirishga asoslanadi.

Kun pardaga kirib yuzung oyi hayosidin,

Yig'lar o'ziyu, orag'a tortar sahobini.

Quyoshga insonning uyalish va yig'lash xususiyatlari ko'chirilgan.

APOSTROFA

Bunda jonsiz narsa harakat qilmaydi, balki unga jonli narsadek munajat qilinadi:

Siyohdon, omon bo'l, ishchan hamdamim,

Ishonki, so'qqabosh bo'lmagaysan hech!

Sei ko'p bezovta qildi qalamim,

Sen ham uxlatmagin meni erta kech!

13 – MAVZU

USLUBIY FIGURALAR

Uslubiy figuralar tingloviga hissiy ta'sir ko'rsatuvchi, nutqning ta'sir kuchini oshiruvchi sintaktik vositalardir. Aslini olganda, uslubiy figuralar va troplar bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisiga aniqlik kiritadi.

Takrorlar sukut, ritorik so'roq, antiteza, gradatsiya, ko'pbog'lovchilik, inversiya, ellipsis kabilar uslubiy figuralarning asosiy ko'rinishlaridir.

ANTITEZA

Grekcha so'z bo'lib, qarama-qarshi qo'yishi ma'nosini bildiradi. Ifodalilikni kuchaytirish uchun qarama-qarshi tushunchalarni, firk, timsol, narsalarni, shaxslarning karakterlarini qiyoslash yoki bir xil narsa hodisalarning

daraja jihatdan qarama-qarshi holatini tasvirlash uchun foydalaniladi. Ikki qarama-qarshi qo'yilgan belgi yoki xususiyat esa biri ikkinchisini inkor qiladi:

Netib o'lmayki sabrin ozdin – ozu, shavq ko'ptin ko'p,
Ul oyning husni ko'ptin – ko'p, vafosi ozdin oz ermish.

(A.Navoiy)

Mumtoz she'riyatidagi tazod san'ati ham antitezaga asoslanadi va undan ta'sirchan badiiy timsollar yaratishda keng foydalaniladi:

Rahm qilg'il bandag'a, ey shoh, ul Tengri uchun,
Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan.

Antiteza asosan antonimlarga asoslanadi. Lekin, har doim emas. Antitezada fikr qarama-qarshiligi nazarda tutiladi: “Taajjub... yangicha aza, yangicha bazm. Ko'zlarda yosh, lablarda kulgu. Egnilarida qora libos, qo'llarida qizil sharob”. O'zbek tilida kulgu va yig'i, qora va oq so'zlari antonim birliklarini tashkil etadi. Keltirilgan misolda esa kulgu va yosh, qora va qizil so'zlari qarama-qarshi qo'yilib antiteza hosil qilingan.

GRADATSIYA

Lotin tilidan olingan bo'lib zinapoya, ya'ni asta – sekin yuqoriga ko'tarilib borish yoki yuqoridan pastga borish ma'nosini bildiradi.

Gradatsiya narsa, belgi, hususiyat yoki harakatni biridan ikkinchisini kuchliroq yoki kuchsizroq ma'no ottenkali sinonimik yoki bir xil tarkibdagi so'zlar vositasida kuchaytirib yoki susaytirib tasvirlashdir.

Navbatdagi so'z oldingi so'zning ma'nosini kuchaytirib bersa klimaks, aksincha susaytirib bersa antiklimaks deyiladi.

YUvib

Tarab

Sevib

O'pib

Quchib

Opichlab

Ey baxtlarni balogʻatga etkazgan ona.

Koʻtarinki ruh bilan yozilgan sheʼriy asarlarda uchraydi. Maxsus ohangga ega boʻladi. Agar maʼno kuchaytirilgan boʻlsa, keyingi soʻz oldingi soʻzdan koʻtarinki ohang bilan, aksincha, maʼno susaytirilgan boʻlsa tushuvchan ton, yaʼni ohang bilan talaffuz qilinadi.

RITORIK SOʻROQ

Odatda soʻroq gaplar soʻzlovchiga nomaʼlum boʻlgan narsa hodisa va harakatlarini soʻrash uchun ishlatiladi. Albatta soʻroq gaplar javob talab qiladi. Lekin, soʻroqning shunday turi ham borki, u javob talab qilmaydi, his – xayajon bilan aytiladi, yashirin tasdiq yoki yashirin inkorni ifodalaydi. U ritorik soʻroqdir. Boshqacha aytganda, soʻroqda javob mujassam boʻladi. Ritorik soʻroq gaplarda ohang muhim boʻlib, u tasviriylilikni oshiradi, taʼsirchanlikni tasvirlaydi. Masalan: Farzandni kim sevmaydi!? (Xamma sevadi – yashirin tasdiq). Oʻzingdan chiqqan baloga, qaerga borasan davoga?! (Hech qaerga – yashirin inkor).

Koʻp bogʻlovchilik va bogʻlovchisizlik

Soʻzlovchi baʼzan nutqqa shoshilinch tus beradi. Unda bogʻlovchilarni ataylab tushurib qoldiradi. Gap boʻlaklari orasidagi aloqa intonatsiya yordamida ifodalanadi. Demak, bogʻlovchisizlik nutqqa tezkor ruhini bagʻishlaydi: oʻz elini, tuprogʻini, tilini, madaniyatini jon dilidan koʻrmagan odam oʻzga xalqlarni, oʻzga oʻlkalarni, oʻzga til va oʻzga madaniyatni hurmat qila olmaydi. Koʻp bogʻlovchilik esa bogʻlovchisizlikka qarshi turadi, yaʼni nutqqa sokinlik, taʼkidlash maʼnosini beradi. Mening xalqimni roʻyobga chiqargan, shod va baxtiyor qilgan, non va osh, eʼtibor va obroʻ bergan narsa, doʻstlikdir.

ELLISIS

Grekcha soʻz boʻlib, tushurib qoldirish demakdir. Matndan osongina bilib olinadigan soʻzning ataylab tushuribqoldirilishi ellipsis deyiladi. Ixchamlilikni taʼminlaydi. YUqoridagi gaplarga izoh, aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi. Nutqqa keskinlik, shoshilinch tus beradi. Xalq maqollari, hikmatli soʻzlar, fraziologik iboralarda ham ellipsis hodisasi mavjuddir. Er – oltin, mehr – koʻzda.

TAKROR

Alliteratsiya, anafora, qofiya (rifma), assonas, konsonas, manorim, pleonazm, tautologiya, qoʻshiqlardagi naqorat kabilar takrorning turli xil koʻrinishlari sifatida talqin qilinadi.

Takrorlanayotgan til hodisalarining materiali joylanish oʻrniga koʻra farqlanadi.

14 – MAVZU

NUTQ USLUBLARI VA NUTQ MADANIYATI

Oʻzbek adabiy tilida quyidagi asosiy uslublar bor:

- 1) Uslublararo (neytral) soʻzlar
- 2) Uslubiy xoslangan soʻzlar

Uslublararo (neytral) soʻzlarga uslubning biror turiga munsublik belgisi mavjud boʻlmagan soʻzlar kiradi. Masalan: dengiz, oʻrmon, sen, shu.

Uslubiy xoslangan soʻzlarga uslubning maʼlum bir turiga xos boʻlgan soʻzlar kiradi.

Ular 5 qismga boʻlinadi:

1. So‘zlashuv uslubi. Keng qo‘llaniladigan uslublardan biri so‘zlashuv uslubidir. Bu uslubda adabiy til normalariga rioya qilinadi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘proq dialogik shaklda bo‘ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning replikasidan tuzilgan nutq dialogik nutq deyiladi.

So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos leksik, grammatik va boshqa belgilar bor. Quyidagi ana shulardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz.

So‘zlashuv uslubida kitobiy uslublarda qo‘llanadigan taklif qildi, sobiq, masalan kabi so‘zlar ishlatiladi. Ergash aka, Kumush opa singari birikmalarda qo‘llaniladigan aka, opa kabi so‘zlar, erkalash – kichraytirish qo‘shimchalari so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. Bu uslubda og‘zi qulog‘ida, joni chiqib ketdi kabi iboralar – frazeologik birikmalar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar ko‘p uchraydi.

Unli tovushlarni cho‘zish (bo:r, ke:l kabi),

Undosh tovushlarni cho‘zib aytish (maza – mazza, haqi – haqqi; endi mazza qilib ertakni eshitinglar, haqini ol, ishchilar! Va boshqalar) so‘zlashuv uslubiga xosdir. So‘zlashuv uslubida gapda so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. So‘zlashuv uslubidagi og‘zaki nutqda (ba‘zan yozma nutqda ham) xalq tilidagi adabiy bo‘lmagan qatlamlarning, masalan, oddiy nutqqa, shevaga, vul‘garizm va boshqalarga xos so‘z va shakllarning salbiy ta‘sir bo‘ladi. Nutq bunday kamchiliklardan saqlanishga harakat qilishi zarur.

2. ilmiy uslub. Fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub faktik ma‘lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (qoidalar, ta‘riflarga) boy bo‘lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy terminlaridan foydalaniladi, masalan: fizika, energiya, kilovatt, tok o‘tkazgich kabi terminlar; matematika, uchburchak, paralellipiped, konus, sinus, teorema,

gipotenuza, tenglama kabi terminlar, tilshunoslikda morfologi sintaksis, soʻz turkumlari, feʼl, tuslanish, turlanish, kesim, bosh boʻlak kabi terminlar ishlatiladi.

Ilmiy uslubda soʻzlar oʻz maʼnosida qoʻllaniladi: qoida yoki taʼrifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan boʻlaklar, kirish soʻz va iboralar, shuningdek, qoʻshma gaplardan koʻproq foydalaniladi.

3. Rasmiy uslub. Hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, spravka, chaqiruv qogʻoi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, eʼlon, adres, xarakteristika, hisobot kabi xujjatlar ham rasmiy uslubda boʻladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Rasmiy uslubning ham oʻziga xos leksik va grammatik hususiyatlari mavjud: soʻzlar oʻz maʼnosida qoʻllanadi. Koʻpchilikka maʼlum boʻlgan ayrim qisqartirma soʻzlar ishlatiladi, har bir sohaning oʻziga xos terminlaridan foydalaniladi. Masalan: sud ishida yoki buxgalteriyada shu sohani oʻziga tegishli soʻz terminlari ishlatiladi: maktab ish qogʻozlarida maktab direktori, direktor oʻrinbosari, sinf rahbari kabi soʻz va birikmalardan foydalaniladi.

Rasmiy uslubda koʻpincha darak gaplardan: qaror, buyruq, koʻrsatma kabilar esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi.

Shuningdek, bu uslubda gap boʻlaklari odatdagi tartibda boʻlishga rioya qilinadi.

4. Publitsistik uslub. Tashviqot – targʻibot ishlari olib borish foydalaniladigan nutq publitsistik uslub boʻladi. Gazeta va jurnallardagi koʻpgina maqolalar, ommaviy siyosiy temadagi dokladlar ham publitsistik uslubda yoziladi. Publitsistik uslubda ijtimoiy – siyosiy leksika koʻp qoʻllanadi (davlat, sessiya, qonun). Publitsistik nutqda taʼsirchan soʻz va birikmalardan maqol va aforizmlardan foydalaniladi.

Publitsistik uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi: kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe‘llar bilan ifodalanadi: darak, his – hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan foydalaniladi.

5. Badiiy uslub. Badiiy asarlarda (poeziya, proza, drammatik asarlar) badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berishi bilan birga, obrazlar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi.

YOzuvchi badiiy asarlarda tilning tasviriy vositalari (sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, kinoya va boshqalar) yordami bilan voqea – hodisaga turli bo‘yoq beradi, o‘z his – hayajoni, ichki kechinmalarini qo‘shib, asar mazmunini badiiy obrazlar orqali bayon qiladi. Badiiy uslubda yozuvchi tilida mavjud bo‘lgan vositalarning hammasidan foydalana oladi. Tasvirlanayotgan davrning ruhini aks ettirish uchun eskirgan so‘zlar, yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni ham ishlatadi.

Badiiy uslubda, o‘rni bilan qahramonlar nutqida adabiy bo‘lmagan til qatlamlaridan, oddiy nutq so‘zlari, sheva vul’garizm va boshqalardan hali foydalaniladi. Bular qahramonlarining xarakterini yaratishda yordam beradi. SHuning uchun badiiy asarlar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinlar ham uchraydi.

15 – MAVZU

XOTIMA

SHunday qilib, har bir ziyoli o‘z nutqini madaniy bo‘lmog‘iga erishmog‘i joiz. Buning uchun esa ona tilining bebaho ne’matlaridan foydalana bilishi, so‘z qadriga e’ta olishi lozim. Bundan tashqari, nutqnig go‘zal, latofatli, mermazmun bo‘lishi kerak. CHunki hamma vaqt ham chiroyli so‘zlarni qatorlashtirib tanlash, balandparvoz jumlar tuzish bilangina madaniy nutqqa erishib bo‘lmaydi.

Kaykovusning ta'biricha: "Xamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol, doimo gapga chechan bo'lishga xarakat qil... Nutqi shirin kishining mehribon kishilar ham ko'p bo'ladi".

Demak, nutq madaniyati olam-olam mazmunni go'zal ifodalab berishga asoslanadi. Bu esa avvalo tilni yaxshi bilish, undan o'rinli va to'g'ri foydalanishi malakasiga ega bo'lish – nutq madaniyatini egallashdir. Mavzuni chuqur bilish, tushunarliklik, ta'sirchan, aniqlik, mantiqiylik, soflilik, qisqalik va lo'ndalikni ta'minlash tinglovchilarning diqqatini tortish, fikrlarni mukammal bayon qilish nutq orqali amalga oshiriladi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy "Mahbubul qulub" asaridan iste'foda etganlaridek, "Ko'ngil xazinasining qulfi - til".

U xazinaning kalitini – so'z bil.

Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Ko'p bemaza so'zlaydigan ezma – kechalari tong otguncha tinmay xuradigan itga o'xshaydi.

Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi: ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am – uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkoni bor. Tilingni ixtiyorini qo'lingda asragil: so'zingni ehtiyotlik bilan so'zla. Vaqtida aytish kerak bo'lgan so'zni asrama: aytish kerak bo'lmagan gapning yaqiniga yo'lama. So'z borki, eshituvchining taniga jon kirgizadi: so'z borki so'zlovchining boshini elga uchiradi.

Ayniqsa, madaniyatning bir bo'lagi bo'lgan nutq madaniyatini egallash, uni san'at darajasiga ko'tarish bo'lajak san'atkorning burchiga aylanmog'i joizdir.

DARSLIKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMALAR RO‘YXATI

№	Muallifi	Adabiyotning nomi (nashriyot, nashr yili va boshqa ma’lumotlar)
1	S.Inomxo‘jaev	“Badiiy o‘qish asoslari” Toshkent, 1973 yil.
2	J.Omonturdiev B.Umrqulov	“Nutq madaniyati asoslari praktikumi” programmasi. Toshkent, 1990 yil.
3	R.Qo‘ng‘urov E.Begmatov YO.Tojiev	“Nutq madaniyati va uslubiyoti asoslari”. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1992 yil.
4	E.Begmatov M.Tursunpo‘latov	“O‘zbek nutqi asoslari” Toshkent. “O‘qituvchi”, 1992 yil.
5	S.Sayfutdinov	“Sahna nutqi”. Toshkent, 1994 yil.
6	I.Po‘latov	“Sahna nutqi”. Toshkent, 1994 yil.
7	R.Jumaniyozov	“Nutqiy mahorat”. Toshkent. “Adolat”, 2005 yil.